“ADOLAT”
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=362

2026-yil
4-son
aprel
ISSN 3093-8546



O‘zbekiston bank tizimida korrupsiyaviy holatlarning oldini olishning yangicha mexanizmlari

Mironshoh Rasulov,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: mironshohrahimjonovich@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida korrupsiyaviy holatlarning kelib chiqish sabablari, ularning ko‘lami va tizimli muammolari tahlil qilingan. Xususan, kreditlash jarayonidan tortib pul yuvishgacha bo‘lgan korrupsiyaviy xavflar, amaldagi qonunchilikdagi bo‘shliqlar hamda tashkiliy-huquqiy kamchiliklar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, xorijiy tajribalar asosida korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmlari taklif etilgan. Muallif tomonidan bank tizimini korrupsiyadan xoli tizimga aylantirish bo‘yicha yangi strategiya va institusional yondashuvlarni joriy etish zarurati asoslab berilgan.

Калит сўзлар. bank tizimi, korrupsiya, korrupsiyaviy xavflar, pul yuvish, kreditlash, huquqiy muammolar, ichki nazorat, bank siri, muammoli kreditlar, kollektorlik xizmatlari

Аннотация. В данной статье проанализированы причины возникновения коррупции в банковской системе Республики Узбекистан, её масштабы и системные проблемы. Рассматриваются коррупционные риски, охватывающие процессы от кредитования до отмывания денежных средств, а также пробелы в действующем законодательстве и организационно-правовые недостатки. На основе зарубежного опыта предложены эффективные механизмы противодействия коррупции. Автор обосновывает необходимость внедрения новой стратегии и институциональных подходов для формирования банковской системы, свободной от коррупции.

Ключевые слова. банковская система, коррупция, коррупционные риски, отмывание денег, кредитование, правовые проблемы, внутренний контроль, банковская тайна, проблемные кредиты, коллекторские услуги

Annotation. This article analyzes the causes, scale, and systemic issues of corruption within the banking system of the Republic of Uzbekistan. It examines corruption risks ranging from lending processes to money laundering, as well as gaps in existing legislation and organizational and legal shortcomings. Based on international experience, effective anti-corruption

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

mechanisms are proposed. The author substantiates the need to introduce new strategies and institutional approaches aimed at transforming the banking system into a corruption-free environment.

Keywords. banking system, corruption, corruption risks, money laundering, lending, legal issues, internal control, banking secrecy, non-performing loans, collection services

Sohadagi korrupsiya ko‘lami bankning kredit ajratish jarayoni bilan cheklanmasdan chetga chiqadi, ya’ni sohadagi korrupsiya xavflari kreditlash jarayonidan pul yuvish jarayonigacha bo‘lgan uzun muammolar tizimini tashkil etadi.

Shunga ko‘ra, sohada yuzaga kelayotgan muammolarni quyidagi tizimlashtirilgan holda bayon etamiz.

Ma’lumot o‘rnida. Mutaxassislarning fikricha, dunyoda har yili ikki trillion dollarga yaqin noqonuniy daromadlar banklar orqali yuvilmoqda[1:84]. Ular orasida “Landromatlar sxemasi” (“Troyka-landromat”, “Moldavskiy”, “Azerbayjanskiy” landromat va boshqalar) eng mashhurlaridan.

2025-yilning mart-may oylarida parlament, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, huquq-tartibot organlari hamda tegishli vazirlik va idoralarning mas’ul xodimlaridan iborat ishchi guruhlar respublikaning barcha hududlariga (14 ta hududdagi jami 97 ta tuman va shaharga) chiqib, sohaning qariyb 60 ta obyektida byurokratiya va maishiy korrupsiyaning kelib chiqish sabablarini joyida o‘rganishdi.

Mazkur o‘rganishlar doirasida bank mijozlari o‘rtasida o‘tkazilgan anonim so‘rovnoma natijalari, xalqaro va milliy adabiyotlar hamda boshqa internet manbalari tahlili asosida tizimdagi korrupsiyaviy xavflar va muammolar aniqlandi. Ushbu tahlillar natijasiga tayangan holda, ularni bartaraf etishga qaratilgan tizimli yechimlar bosqichma-bosqich nazariy jihatdan ko‘rib chiqiladi.

I. Tizimda yuzaga kelayotgan nazariy-huquqiy muammolar quyidagilardan iborat

Birinchidan, sohada korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlatning asosiy faoliyat yo‘nalishlarini belgilab beruvchi alohida Strategiya yoki Davlat dasturning mavjud emasligi ko‘plab muammolarning kelib chiqishiga asosiy sabab bo‘lmoqda.

Bu borada Gruziya (Bank of Georgia)[2] va Turkiya (AKBANK T.A.Ş)[3] banklari tomonidan ishlab chiqilgan siyosatlardan dastrulamal sifatida foydalanish maqsadga muvofiq.

Fikrlarimizni Xitoyning ko‘zga ko‘ringan olimlaridan Hanming Fang ham tasdiqlaydi[4]: “Sohada aniq belgilangan strategiyalar natijasida banklar tomonidan beriladigan kreditlar mo‘tadillashadi”.

Soha olimlarining qarashlari, xorijiy mamlakatlarning tajribalar korrupsiyaning oqibati bilan emas, balki ularni keltirib chiqaruvchi omillarni, sabablarni aniqlash uchun xizmat qilishini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasida ayni ushbu yo‘nalishda

“2026-2027-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini korrupsiyadan xoli tizimga aylantirish dasturi”ni Prezident farmoni bilan tasdiqlash taklif etiladi.

Sababi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son farmoni bilan tasdiqlangan “2020 – 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi”ning biron bandida korrupsiyaga qarshi kurashish yoki oldini olish masalalari keltirilmagan. Vaholanki, korrupsiyaga qarshi kurashish tizim faoliyatini takomillashtirishdagi asosiy vazifa hisoblanadi.

Ikkinchidan, davlat organlari va tashkilotlariga (ayniqsa xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanuvchilarga) O‘zbekiston Respublikasining “Budjet kodeksi”ga muvofiq yagona g‘azna hisobvarag‘idan tashqari boshqa bank hisobvaraqlarini ochish huquqi berilgan. Shuningdek, mazkur kodeksning 117-moddasiga asosan, xizmat ko‘rsatishdan tushadigan mablag‘larning ma’lum qismini ushbu hisobvaraqlarga yo‘naltirishga ruxsat etilgan.

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu norma ayrim hollarda davlat mablag‘laridan samarasiz va nazoratsiz foydalanish, ya’ni xo‘jasizlarcha muomala qilinishiga zamin yaratmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mazkur holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘layotgan asosiy omillardan biri amaldagi “Bank siri to‘g‘risida”gi qonunda bank siriga oid ma’lumotlarni taqdim etish doirasining keskin cheklanganidir. Xususan, qonunning 8-moddasiga muvofiq bunday ma’lumotlar faqat O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, shuningdek maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etilishi belgilangan.

Biroq amaliyotda korrupsiyaviy jinoyatlar ko‘pincha murakkab zanjir shaklida namoyon bo‘lib, ularning ayrim bo‘g‘inlari hali jinoyat ishi qo‘zg‘atilmagan shaxslar bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Mazkur jihat qonunchilikda yetarli darajada inobatga olinmagan.

Shu bilan birga, qonunning 16-moddasi uchinchi xatboshisiga ko‘ra, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda ularning mansabdor shaxslari bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarni so‘rash va olish huquqiga ega emasligi belgilangan.

Mazkur norma, bir tomondan, bank sirining daxlsizligini ta’minlashga xizmat qilsa-da, boshqa tomondan, qonunchilikda bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlar doirasi aniq belgilab berilmaganligi sababli, amaliyotda turli talqinlarga yo‘l ochmoqda. Natijada, banklar tomonidan deyarli barcha holatlarda so‘rovlar “Bank siri to‘g‘risida”gi qonun talablariga zid, degan asos bilan rad etilishi holatlari kuzatilmoqda.

Ushbu o‘rinda, nazariyotchi olim He Pingning fikrlariga qo‘shilsak bo‘ladi[6]. Unga ko‘ra,“Mamlakatlar korrupsiyaga qarshi kurashish hamda noqonuniy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash sohasida shubhali ma’lumotlarni tasdiqlovchi faktlar hamda tergov xulosalari bo‘lgan taqdirda bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarni ochiqlashi zarur”.

Shunga ko‘ra, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining 40-moddasida har bir ishtirokchi davlat mazkur konvensiyada jinoyat deb tan olingan jinoiy xatti-harakatlar sodir etilishi bilan bog‘liq ichki jinoiy tergov ishlari olib borilayotgan holatlarda bank siri to‘g‘risidagi qonunchilik holatlari qo‘llanilishi natijasida yuzaga keluvchi to‘siqlarni yengish uchun o‘zining ichki huquqiy tizimi doirasida zarur tegishli mexanizmlar bo‘lishini ta'minlashi lozimligi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Istanbul harakatlari rejasida nazorat tashkilotlariga benefitsiar mulkdorni aniqlash uchun bank mijozlarining hisob qaydnomasiga to‘liq kirish imkoniyatini yaratish zarurligi to‘g‘risida qoidalar belgilanganligi hamda soha olimlarining qarashlarini inobatga olib O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri to‘g‘risida”gi 530-II-sonli qonunining 8-moddasini quyidagi tahrirdagi yangi qism bilan to‘ldirish tavsiya etiladi:

“...pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalar to‘g‘risidagi axborot korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi holatlariga qarshi kurashish bilan bog‘liq bo‘lsa, qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda va tartibda vakolatli davlat organining so‘roviga asosan, bankning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmasi xulosasiga ko‘ra taqdim etiladi.”

Uchinchidan, banklarning “Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnomasi”ga[7] asosan barcha nomzodlar korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi holatlari yuzasidan tekshiruvdan o‘tkazilishi shart.

Biroq 2025-yilning mart-may oylarida davlat banklari filiallarida o‘tkazilgan o‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari tomonidan berilgan salbiy xulosalarga qaramay, 10 dan ortiq holatda filial boshqaruv xodimlari korrupsiyaviy jinoyat sodir etganlikda ayblanib, ularga nisbatan ayb e’lon qilingan bo‘lsa-da, ular hanuzgacha boshqaruv lavozimlarida faoliyat yuritib kelmoqda.

Mazkur muammoning asosiy sabablaridan biri shuki, tekshiruv natijalari bo‘yicha ijobiy yoki salbiy xulosa bankning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari tomonidan berilishiga qaramasdan, birorta normativ-huquqiy hujjatda tekshiruv natijalari bo‘yicha berilgan salbiy xulosa ishga qabul qilishni rad qilish uchun asos bo‘lishiga oid normalar bilan boyitilmagan.

Ma’lumot uchun. Braziliyaning “Lei da Ficha Limpa” (Clean record Act) qonuniga ko‘ra, korrupsiyaviy huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxslar 8 yil davomida davlat organlari va tashkilotlarida boshqaruv lavozimini egallashni taqiqlaydi[8] .

Shunga ko‘ra, birinchi navbatda “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari to‘g‘risida”gi namunaviy nizomni Hukumat qarori bilan tasdiqlash hamda mazkur namunaviy nizomni quyidagi tahrirdagi qoida bilan boyitish tavsiya etiladi:

“...Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari tomonidan yangi ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha

berilgan salbiy xulosalar tanlovda qatnashish yoki ishga olishni rad qilish uchun asos bo‘ladi.”

II. Tashkiliy-huquqiy muammolar quyidagilar:

Birinchidan, undirilishi muammoga aylanib borayotgan kreditlarni o‘z vaqtida qaytarish banklarda va boshqa kredit tashkilotlarida bir qancha muammolarni vujudga keltiryapti.

Ma’lumot uchun. Markaziy bankning 2025-yil 1-fevraldagi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatimiz banklaridagi jami muammoli kreditlarning ulushi 23 768 tani tashkil qilgan bo‘lsa, shundan davlat ulushidagi banklarning ulushi 16 820 tani tashkil qiladi[9].

Bu esa bank aktivlarining iqtisodiy aylanish sikliga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mazkur muammo nafaqat milliy darajadagi, balki xalqaro hamjamiyatni ham chetlab o‘tmaydigan muammolardan sanaladi. Sababi 2008-yildagi banklardagi kredit inqirozi Yevropa ittifoqini ham qamrab olib, muammoli kreditlar ulushining oshishi oqibatida Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy o‘sishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi[10]. Bunga javoban, Yevropa ittifoqi komissiyasi 2018-yilda Yevropada yuqori darajadagi muammoli kreditlarning xavflarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar paketi direktivasini ishlab chiqib, unda kollektorlik xizmatlarining joriy etilishiga ruxsat berish hamda ularga muammoli kreditlarni sotib olish va garovni undirish bo‘yicha vakolatlarni taqdim etdi.

Direktivada ko‘rsatilgan takliflar natijasida kredit xizmatlarini ko‘rsatish va bank kreditlarini Yevropa ittifoqi bo‘ylab uchinchi shaxslarga o‘tkazish uchun yagona bozor yaratildi[11].

Ammo mazkur tajribada bir qator xavflar yuzaga kelishi Ittifoq davlatlarining yangicha mexanizmlarni joriy etishga undadi. 2019-yil oxiridan bir qator yangi tashabbus ilgari surila boshlandi, xususan Yevropa parlamentining Iqtisodiy va pul-kredit masalalari qo‘mitasi hisobot loyihasida qarzlarni undirish bilan bog‘liq qarz oluvchilar huquqlarini himoya qilishning yetarli darajasiga erishish va qarzlarni undirishdagi qonunbuzarliklarni bartaraf etishga qaratilgan bir nechta taklif, xususan, qarzlarni undirish xarajatlarini undirishni taqiqlash, tajovuzkor, chalg‘ituvchi yoki ta’qib qiluvchi amaliyotlarni taqiqlash ilgari surilib amaliyotga joriy etildi[12].

Bugungi kunda yurtimizda ham ushbu muammo tobora chuqurlashib, bank protfeliga hamda qarzdorlarning to‘lov qobiliyatiga yetkazilayotgan zarar ko‘lamining oshib borayotganligi qonunchilikda belgilangan bir qator normalar bilan bog‘liq. Jumladan, muammoli kreditlar bo‘yicha sud va undiruv xarajatlarini “umidsiz” deb tasniflangan qarzlarni balansdan chiqarish orqali qisqartirishga imkon beruvchi normalarning mavjudligi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 248-moddasiga muvofiq kredit qarzdorligini undirish yuzasidan sudning hal qiluv qarori chiqarilgach, undiriladigan summa bo‘yicha foizlar hamda neustoyka hisoblanishining to‘xtatilishi amaliyotda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Bunday yondashuv, o‘z navbatida, qarzdorlarning moliyaviy intizomini susaytirishi, banklarning aktivlari sifati yomonlashuvi va kelgusida yirik moliyaviy xatarlar, hatto tizimli inqiroz holatlarining yuzaga kelishiga zamin yaratishi ehtimolini kuchaytiradi.

Shunga ko‘ra, Yevropa ittifoqi tajribasidan kelib chiqqan holda muammoli kreditlar bilan shug‘ullanadigan alohida mustaqil xizmatlar, kollektorlik xizmatlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu kabi xizmatlar undirilishi muammoga aylanayotgan kreditlarni tijorat bankidan sotib oladi yoki tijorat banklari qoshida (ta’sischiligida) tashkil etiladi (Sug‘urta tashkilotlariga o‘xshab). Ushbu tuzilma tijorat bankiga muammoli aktivlarni undirishda yordam ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-240-sonli qaroriga muvofiq, shuningdek Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Adliya vazirligining 2022-yil 31-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo‘linmalari, davlat muassasalari va ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti” asosida korrupsiyaviy xavflarni baholash tizimi joriy etilgan.

Biroq amaliyot tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu yo‘nalishda belgilangan chora-tadbirlar ko‘p hollarda yetarli darajada va tizimli ravishda amalga oshirilmayapti.

Misol uchun. “e-anticor.uz” elektron platformasi orqali “Biznesni rivojlantirish banki”ning 2024-yil gi faoliyatiga oid jami 20 ta funksiyaning 5 tasida xavf-xatar darajasi “yuqori”, 15 tasida “o‘rta”darajada baholangan.

Mazkur muammolarning oldini olish maqsadida tizimda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarni yetarli darajada amalga oshirmagan soha rahbarlarining mas’uliyatini kuchaytirish zarur. Shu nuqtayi nazardan bunday mansabdor shaxslar faoliyatini tegishli ravishda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengash yoki hududiy kengashlar darajasida ko‘rib chiqish tartibini belgilovchi normalarni O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuniga kiritish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi 31-son qaroriga muvofiq, hokim yordamchilari tomonidan tavsiya etiladigan kredit, subsidiya, grant va moddiy yordam turlarining aniq ro‘yxati tasdiqlangan. Mazkur ro‘yxatga ko‘ra, jami 21 turdagi yo‘nalishlar, jumladan mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi, chorvachilik va hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash, fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish, subsidiya va grantlar ajratish hamda o‘qitish xarajatlarini qoplab berish kabi masalalar bo‘yicha tavsiya berish vakolatlari belgilangan.

Tahlillarga ko‘ra, hokim yordamchilarining tavsiyanoma berishni “o‘z xohishiga ko‘ra” hal etishi, banklar tomonidan kredit mablag‘lari

ajratilishining maqsadga muvofiqligi yuzasidan xulosa berish tartibi mavjud emasligi, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lmagan yoki kredit mablag‘larini qaytarish imkoniyati bo‘lmagan shaxslarga kredit mablag‘lari ajratilishiga hamda imtiyozli kredit mablag‘larining o‘zlashtirilishi, talon-toroj qilinishi yoxud kredit mablag‘larining maqsadsiz saflanishiga olib kelmoqda.

Bu kabi holatlarning oldini olish maqsadida hokim yordamchilari tomonidan fuqarolarga imtiyozli kredit ajratish yuzasidan tavsiyanoma berish yoki rad etish bo‘yicha aniq va shaffof mezonlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, banklar tomonidan mazkur kreditlarning iqtisodiy asoslanganligi va maqsadga muvofiqligi yuzasidan majburiy xulosa berish amaliyotini joriy etish hamda ushbu jarayonlarda ularning qat’iy mas’uliyatini belgilash zarur. Fuqarolar tomonidan ajratilgan imtiyozli kredit mablag‘larining maqsadli ishlatilishi ustidan dastlabki monitoringni esa www.online-mahalla.uz platformasi orqali kollegial tartibda amalga oshirish mexanizmini yo‘lga qo‘yish taklif etiladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son farmoni ijrosi doirasida imtiyozli kreditlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda kredit resurslarining bank filiallari kesimidagi taqsimoti haqidagi ma’lumotlarni ochiq e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar ro‘yxatiga kiritish ham shaffoflikni ta’minlashga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, banklar tomonidan ajratilgan imtiyozli kredit mablag‘larining maqsadli foydalanilishi ustidan monitoring o‘tkazish jarayoni amaldagi tartibga ko‘ra joyiga chiqib, tegishli qog‘oz shaklidagi dalolatnoma (akt) rasmiylashtirish orqali amalga oshirilishi belgilangan. Biroq amaliyotda ayrim hollarda mas’ul xodimlar tomonidan obyektga chiqmasdan turib ham dalolatnomalar rasmiylashtirilishi holatlari uchramoqda. Eng muhim jihati shundaki, bunday holatlarni aniqlash va oldini olishga qaratilgan samarali nazorat mexanizmlari yetarli darajada shakllantirilmagan.

Bu esa o‘z navbatida fuqaro va tadbirkorlar tomonidan olingan kredit mablag‘larining maqsadsiz sarflanishi, talon-toroj qilinishiga olib kelib, mazkur holatlarni barvaqt aniqlash va bartaraf etishga imkon bermaydi.

Bu kabi holatlarning oldini olish maqsadida ajratilgan imtiyozli kredit mablag‘laridan maqsadli foydalanish ustidan monitoring qilish imkonini beruvchi “on-site” verifikatsiya mobil ilovasini yaratish, bunda har bir joyda tekshiruv uchun bank xodimi mobil ilovada GPS koordinatalar, vaqt va kamida 2-3 geotaglangan foto yuklashni majburiy qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur ilovada noto‘g‘ri yoki o‘zgartirilgan “geotag” aniqlansa, avtomatik tekshirishni talab qiladigan funksiyalarni ishga tushirish imkoniyati yaratilishi zarur.

Foydalanilgan manbalar

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

1. Schneider F., Ernst D. Shadow economies: Size, causes, and consequences // Journal of Economic Literature. 2000. Ed. XXXVIII. P. 84

2. Электрон манба. URL: https://ramad.bog.ge/s3/BogGroup/Anti-Bribery-and-Anti-Corruption-Policy.pdf (мурожаат вақти: 21.09.2025 йил)

3. Электрон манба. URL: https://www.banktrack.org/download/anticorruption_and_antibribery_policy/ (мурожаат вақти: 21.09.2025 йил)

4. Fang, H. (2023). Measurements, Determinants and Causes of Corruption: Lessons from China's Anti-Corruption Campaign. NBER Working Paper No. 31276 (May 2023).

5. Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик малумотлари миллий базаси, Тошкент ш., 2003 йил 30 август, 530- II-сон.

6. He, P. (2004). Banking secrecy and money laundering. Journal of Money Laundering Control, 7(4), 376–382. doi:10.1108/13685200410810074.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 12 январдаги ПҚ-81-сон қарори билан тасдиқланган “Коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлигини рейтинг баҳолаш тартиби тўғрисида”ги низом ҳамда Ўзбекистон Республикасининг “Манфаатлар тўқнашуви тўғрисида”ги Қонуни, 8-моддаси.

8. Электрон манба. URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Ficha_Limpa. (мурожаат вақти: 22.09.2025 йил)

9. Электрон манба. URL: https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/2203324/. (мурожаат вақти: 22.09.2025 йил)

10. Macchiarelli, C., Giacon, R., Georgosouli, A. Monti, M. (2019, March 27). Why non-performing loans are still putting the European banking union at [LSE Blogpost]. Retrieved from https://blogs.lse.ac.uk/europpblog/2019/03/27/why-non-performing-loans-are-still-putting-the-european-banking-union-at-risk/

11. Huertas, M., & Schelling, H. (2020, March 19). European Union: The EU’s new credit servicers directive – Where are we now.

12. Stănescu C-G., 2021. Regulation of Abusive Debt Collection Practices in the EU Member States: An Empirical Account. Journal of Consumer Policy, 44(2):179–216. DOI: 10.1007/s10603-020-09476-8.